

1–2-MAVZULAR

TARIX DARSIGA ILK QADAM. MUSTAQILLIK. VATAN. BILIM

Ushbu darsdan so'ng siz:

- tarix fani nima uchun kerakligini va u bizga nimalarni o'rgatishini tushunib olasiz;
- tarixiy ma'lumotlar, tarixiy dalillar, tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida ma'lumotga ega bo'lasiz;
- Mustaqillik bayramining xalqimiz hayotidagi ahamiyatini anglab yetasiz.



Bitta xalq – bitta davlat



1.1-rasm. Toshkent shahri “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi Mustaqillik yodgorligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning g‘oyasi va tashabbusiga ko‘ra yaratilgan.

Tarix fani nima uchun kerak?

Aziz o'quvchilar! Bugun siz tarix fanidan ilk darsni boshladingiz.

Xo'sh, tarix fani bizga nima uchun kerak?

Tarix fani bizning xalq sifatida kelib chiqishimiz, davlatchiligimiz, an'ana va qadriyatlarimiz, axloq-odobimiz qachon paydo bo'lgani va o'zligimiz qanday toblanganini ko'rsatib beruvchi yo'lchi yulduzdir. Tarixiy bilimlarimiz xuddi yulduz kabi butun umr bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatib turadi.



Tarix fanidan nimalarni bilib olamiz?

Tarix fanidan biz o'tmishimiz qanchalar qadim, boy va buyuk bo'lganini, ajdodlarimiz yaratgan shaharlar, qilgan kashfiyotlari, tuzgan saltanatlari va avlodlarga qoldirgan o'lmas va tengsiz merosni, shuningdek, 3000 yildirki **bitta xalq – bitta davlat** ekanimizni bilib olamiz.



Eslab qoling

Tarix – vaqt, yil, oy, kun, davr va o'tmish ma'nolarini anglatuvchi, asli arabcha so'z.

Tarixiy ma'lumotlar – o'tmishga oid har qanday guvohliklar. Ular haqqoniy, taxminiy, to'qima yoki hatto yolg'on bo'lishi ham mumkin.

Tarixiy dalillar – ishonchli manbalar asosida o'z isbotini topgan voqea yoki hodisalar.

Tarixiy voqea – o'tmishda yuz bergan aniq voqea yoki hodisa.

Tarixiy shaxslar – o'tmishda o'z qarash, bilim va mahorati bilan buyuk o'zgarishlar, kashfiyotlar qilgan, botirligi bilan tanilgan kishilar.

Tarixiy ma'lumotlar

haqqoniy	taxminiy	to'qima	yolg'on
Amir Temur – buyuk saltanat asoschisi	Amir Temur saltanatida 20 milliongacha aholi yashagan	Amir Temur barpo etgan Taxtaqoracha bog'i shunday katta bo'lganki, unda yo'qolib qolgan ot olti oydan so'ng topilgan	Amir Temurning butun umri urushlarda o'tgan

Tarixiy dalillar

Muhammad Xorazmiy – o'nlik sanoq tizimi asoschisi	Alisher Navoiy – o'zbek tilida besh dostonidan iborat "Xamsa"ni yaratgan buyuk shoir
---	--

Tarixiy voqealar

Shahrisabzdagi Oqsaroy qurilishi 1380-yili boshlangan	Islom sivilizatsiyasi markazi binosi 2018–2026-yillarda qurilgan
---	--



Tarixiy shaxslar

Amir Temur

Muhammad
Xorazmiy

Ibn Sino

Mahmudxo'ja
Behbudiy



Mustaqillik kuni

Nima uchun Mustaqillik kunini nishonlaymiz?

1991-yil 1-sentabr – xalqimiz o'zining **3000 yillik** milliy davlatchiligini qayta tiklagan va mustaqil rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan buyuk sana. Shu bois bu kun barchamiz uchun ulug' bayram sifatida qadrlanadi.

Mustaqillik nima va nima uchun bizga shunchalar aziz?

Har bir insonning o'z uyi, mahallasi, qishlog'i, shahri, viloyati, yurti bo'ladi. Bularning barchasini bir so'z bilan **Vatan** deyimiz.

Har bir inson va har bir xalq erkin yashashni istaydi. Buning uchun u mustaqil bo'lishi, ya'ni boshqa davlatlar va xalqlarga qaram bo'lmasligi kerak.

Mustaqillik har bir inson va xalqning erkin yashashi hamda Vatanini asrashi uchun zarur.



O'zbekning ulug'lari



Abu Rayhon Beruniy (973–1048)

Abu Rayhon Beruniy 973-yili Xorazmning Kot (hozirgi Beruniy) shahrida tug'ilgan.

1030-yili Atlantika ortida quruqlik, ya'ni Amerika qit'asi borligini bashorat qilgan. 1048-yili G'azna (hozirgi Afg'oniston hududi) shahrida vafot etgan. Qabri ham o'sha yerda.





1.2-rasm. Mustaqillik bayrami tantanalari.

Mustaqilligimizni asrash uchun nima qilishimiz kerak?

Mustaqilligimizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir.

Buning uchun bizdan vatanparvarlik, elga sadoqat va pishiq bilim talab etiladi. Vatanni sevish uning o'tmishini bilishdan boshlanadi. Ana shunday bilimlarni egallashimizga esa tarix fani yordam beradi.

Demak, tarix fani bizga Vatanimizni sevish va erkimizni asrab-avaylashni ham o'rgatar ekan.



Bilib qo'ygan yaxshi

Baland hilpirab turgan **bayroq**, rasmiy binolar va hujjatlarga tushirilgan, chegaralarga o'rnatilgan **gerb** shu yurtning egasi kimligini bildirib turadi. Davlat **madhiyasi** esa shu yurt va uning xalqi haqida tarannum etilgan milliy qo'shiq sanaladi. O'zbekistonning har bir fuqarosi davlat madhiyasini bilishi shart. Davlat madhiyasi ijro etilganda barcha tik turgan holda o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yib tinglashi kerak.





Eslab qoling

Sohibqiron – buyuk bobomiz Amir Temurga berilgan yuksak unvon.



Mashg'ulotlar

Berilgan matnlarni o'qing va ularning ichidagi tarixiy shaxslar, dalillar hamda voqealarni ajratib, jadvalning mos ustunlariga yozing.

1. Muhammad Xorazmiy – o'zbek xalqining buyuk farzandi.
2. Sohibqiron Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi qishloqda tug'ilgan.
3. 1370–1501-yillar mobaynida temuriylar sulolasi davlatimizni boshqargan.
4. 1-sentabr – Mustaqillik kuni.
5. Yangi O'zbekistonning tarixiy bosqichi 2016-yil 8-sentabrda boshlangan.
6. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda tug'ilgan.
7. Birinchi Uyg'onish bosqichi 9–13-yuzyillik boshlarida kechgan.

Tarixiy shaxslar

* * * * *

* * * * *

* * * * *

Tarixiy dalillar

* * * * *

* * * * *

* * * * *

Tarixiy voqealar

* * * * *

* * * * *

* * * * *



Savol va topshiriqlar

1. Bu darsda qaysi buyuk insonlar va qiziqarli voqealar bilan tanishdingiz?
2. Nima uchun tarixni o'rganish bizga juda muhim? U bizga nimalarni o'rgatadi?
3. El-yurtga sadoqat haqida qanday maqollarni bilasiz?

